



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BO‘LAJAK HAMSHIRALARNING XALQARO MUHITDAGI MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Axmedova Sevara Raxmanqulovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya.

Maqolada zamonaviy tibbiyotning globallashuv sharoitida bo‘lajak hamshiralarning xalqaro muhitda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda hamshiralarning turli madaniyatlar vakillari bilan kasbiy faoliyat olib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan madaniyatlarda savodxonlik, maxsus til bilim, emotsional zehn va texnologik kompetentlik kabi asosiy ko‘nikmalar tahlil qilingan. Madaniyatlarda simulyatsiyalar, xalqaro hamkorlik dasturlari va til immersiyasi kabi innovatsion o‘quv usullari taklif etilgan bo‘lib, ularning samaradorligi nazariy jihatdan asoslangan. Maqolada, shuningdek, bo‘lajak hamshiralarning xalqaro muloqot ko‘nikmalarini baholashning zamonaviy tizimlari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Hamshiralik ta’limi, xalqaro muloqot, madaniyatlarda savodxonlik, kasbiy tayyorgarlik, madaniyatlarda simulyatsiya, tibbiy til immersiyasi, emotsional zehn, telemeditsina, kasbiy kompetentlik.

DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE NURSES IN AN INTERNATIONAL ENVIRONMENT

Axmedova Sevara Raxmanqulovna

Doctoral Student (PhD), Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan

Abstract.

The article discusses the issues of developing effective communication skills of future nurses in an international environment in the context of globalization of modern medicine. The study analyzes the key skills of nurses, such as intercultural literacy, specific language knowledge, emotional intelligence and technological competence, which are important for their professional activities with representatives of different cultures. Innovative training methods, such as intercultural simulations, international cooperation programs and language immersion, are proposed, the effectiveness of which is theoretically substantiated. The article also recommends modern systems for assessing the international communication skills of future nurses.

Keywords: Nursing education, international communication, intercultural literacy, professional training, intercultural simulation, medical language immersion, emotional intelligence, telemedicine, professional competence.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЁР В МЕЖДУНАРОДНОЙ СРЕДЕ

Ахмедова Севара Рахманкуловна

базовый докторант Джизакского филиала Национального университета
Узбекистана

Аннотация.

В статье рассматриваются проблемы формирования эффективных коммуникативных навыков у будущих медицинских сестёр в международной среде в условиях глобализации современной медицины. В исследовании анализируются ключевые

навыки медицинских сестёр, такие как межкультурная грамотность, владение профессионально-ориентированным языком, эмоциональный интеллект и технологическая компетентность, необходимые для профессиональной деятельности во взаимодействии с представителями разных культур. Предлагаются инновационные методы обучения, включая межкультурные симуляции, программы международного сотрудничества и языковую иммерсию, теоретическая эффективность которых обоснована. Также в статье рекомендованы современные системы оценки международных коммуникативных навыков будущих медицинских сестёр.

Ключевые слова: сестринское образование, международная коммуникация, межкультурная грамотность, профессиональная подготовка, межкультурная симуляция, языковая иммерсия в медицинской сфере, эмоциональный интеллект, телемедицина, профессиональная компетентность.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot hamkorlik va globallashuv davrida yashamoqda. Bugungi kunda hamshiralar nafaqat mahalliy, balki xalqaro kontekstda ham ishlashlari mumkin. Shu sababli, ularning kasbiy tayyorgarligida xalqaro muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola bo'lajak hamshiralarni turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qilishga tayyorlashning zamonaviy usullari va uslubiyatini o'rganishni talab qiladi [1; 97b].

Bo'lajak hamshiralarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish — zamonaviy tibbiyot tizimi talab qiladigan eng muhim kasbiy tayyorgarlik elementlaridan biridir. Bu faqat yaxshi gaplasha olish emas; bu real klinik sharoitda bemor, shifokor, hamkasblar va xalqaro tibbiyot muhiti bilan to'g'ri va samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Quyida bu kompetensiyaning nega zarurligini keng va ilmiy asoslanganligiga to'xtalib o'tamiz [2; 214 b]. Avvalo hamshira bemor bilan eng ko'p muloqot qiladigan mutaxassis. U so'zlarni noto'g'ri tushunsa yoki noto'g'ri ifodalasa dorilar noto'g'ri berilishi, protseduralar xato bajarilishi, hayotiy ko'rsatkichlar noto'g'ri baholanishi kabi xatolar yuz berishi mumkin. Yaxshi kommunikatsiya davolanish sifatini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va bemor xavfsizligini himoya qiladi. Tibbiyot xodimlarining raqamli tibbiyot texnologiyalarida samarali ishlashi avvalo tibbiyot xodimlarining elektron tibbiy kartalar, telemeditsina platformalari, raqamli simulyatorlar va mobil sog'liq ilovalari bilan ishlashda qo'l keladi. Bu bilan ham bemor bilan doimiy raqamli muloqot olib boradi [3; B. 47 b].

Kommunikativ kompetensiya bo'lmasa, texnologiyalardan to'g'ri foydalanish qiyinlashadi. Bo'lajak hamshiralarni xalqaro muhitga tayyorlash uchun an'anaviy ta'lim dasturlaridan tashqari quyidagi innovatsion usullardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1-jadval

Xalqaro muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik usullari

Vaziyatli o'yinlar (Case Studies) va rolli o'yinlar (Role-playing)	T u r
alqaro almashinuv	Talabalarni chet eldagi tibbiyot muassasalarida amaliyot o'tashga yuborish yoki xorijiy talabalar bilan birgalikda loyihalarda ishlash ularning dunyoqarashini kengaytiradi


Interfaol seminarlar va treninglar	Madaniyatlararo muloqot, xalqaro tibbiyot etikasi, chet tillarini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslar
Virtual hamkorlik	Turli mamlakatlardagi hamshiralik maktablari bilan onlayn loyihalar, vebinar va videokonferensiyalar o'tkazish. Bu talabalarga texnologiyalardan foydalangan holda xalqaro jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi
Ko'ngilli dasturlarga jalb qilish	Talabalarni ko'p millatli jamoalarda ishlaydigan nodavlat va xayriya tashkilotlarining loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish

Xalqaro muloqot ko'nikmalari zamonaviy hamshira uchun nafaqat qo'shimcha kvalifikatsiya balki zarurat hisoblanadi [4; P. 147 b]. Ular nafaqat kasbiy muvaffaqiyatni balki bemorlar salomatligini yaxshilashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi Ushbu ko'nikmalarni doimiy rivojlantirish professional hamshiraning muvaffaqiyat kalitidir [5; P. 65 b].

Xalqaro muloqot ko'nikmalarining tarkibiy qismlari quydagilardan iborat.

- **Madaniyatlarda savodxonlik** - turli madaniyatlarning sog'liqni saqlashga oid qadriyatlarini, e'tiqodlarini va amaliyotlarini tushunish va hurmat qilish.
- **Maxsus til bilim** - nafaqat chet tilini bilish, balki xalqaro tibbiy terminologiya va kasbiy jargonga ham egalik.
- **Emotsional xolat** - turli madaniy shaxslarning hissiy reaksiyalarini tushunish va ularga mos munosabatda bo'lish.
- **Texnologik kompetentlik** - xalqaro masofaviy konsultatsiyalar va telemeditsina platformalarida samarali ishlash ko'nikmasi.

Xalqaro muloqot ko'nikmalari zamonaviy hamshira uchun nafaqat qo'shimcha kvalifikatsiya balki zarurat hisoblanadi. Ular nafaqat kasbiy muvaffaqiyatni balki bemorlar salomatligini yaxshilashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [6; 119 b]. Ushbu ko'nikmalarni doimiy rivojlantirish professional hamshiraning muvaffaqiyat kalitidir.



1-chizma: Xalqaro muloqot ko'nikmalarining tarkibiy qismlari

Bo'lajak hamshiralar muloqot ko'nikmalarini **darsliklar va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash talab etiladi**. "Hamshiralik ishida muloqot", "Psixologiya", "Meditsina etikasi" kabi

fanlar bo'yicha darsliklarni o'rganish maqsadga muvofiq. Bu erda faol tinglash, ochiq va yopiq savollar berish, empatiya kabi asosiy tushunchalar bilan tanishadi [7; P. 218 b]. Ko'plab onlayn platformalar (Coursera, edX va boshqalar) sog'liqni saqlash sohasidagi muloqotga bag'ishlangan kurslarni taklif etadi. Bundan tashqari ta'lim muassasalarida dars jarayonida bemorlar bilan turli vaziyatlarni (yomon xabar yetkazish, norozilikni bartaraf etish, ko'rsatmalar berish) o'ynash orqali mashq qilish imkoniyati mavjud. Bu xavfsiz muhitda xatolardan o'rganishga imkon beradi [8; P. 347 b]. Bo'lajak hamshiralarga **klinik amaliyot (stajirovka)** eng muhim bosqich hisoblanadi. Har bir bemor bilan suhbat - bu yangi tajriba olishga yrdam beradi va **kuzatish natijasida** hamshiralalar va shifokorlarning bemorlar bilan qanday muloqot qilishlarini kuzatib tajribasini oshiradi [9; P. 347 b]. Hamshira muloqoti san'at va fanning uyg'unligidir. Uni o'rganish umrboqiy jarayondir. Asosiysi, o'z kamchiliklarini tan olish, yordam so'rashdan tortinmaslik va har bir bemor bilan suhbatni yangi imkoniyat sifatida qabul qilish bu murakkab muloqot jarayoning kalitidir.

2-jadval

Murakkab muloqotlarni muvaffaqiyatli boshqarish

1. Oldindan tayyorgarlik

Vaziyatni tahlil qilish	Muammoning ildiz sabablarini aniqlash Barcha tomonlarning pozitsiyasini tushunish Ma'lumotlarni to'plash va tasdiqlash
Maqsadlarni belgilash	Ideal natija Qabul qilinadigan yechim Minimal talablar

2. Muloqot boshlanishi

Muhit yaratish	Xavfsiz va neytral makon Yordamchi va ochiq ohang Vaqt va joyni to'g'ri tanlash
Muloqotni ochish	Maqsadni aniq bayon qilish Hamkorlik ruhini ta'kidlash Biz bu muammoni birgalikda hal qilishimiz kerak

3. Faol aloqa jarayoni

Tinglash ko'nikmalari	To'liq diqqat So'zlamani buzmaslik Tushunganlikni tekshirish Siz aytmoqchisizki Ochiq savollar
Savol berish texnikasi	Chuqurlashtiruvchi savollar Aniqlashtiruvchi savollar

4. Muammoni hal qilish

Qiyinchiliklarni tan olish	Har bir tomonning qiyinchiliklarini tushunish His-tuyg'ularni amalga oshirish Sizning vaziyatingizni tushunaman..
Yechimlarni izlash	Bir nechta variantlarni ko'rib chiqish Ijodiy yondashuv

Har bir tomonning imkoniyatlarini hisobga olish

Muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion usullari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Madaniyalararo simulyatsiyalar amaliy mashg'ulotlarda turli madaniyatlarning tibbiy amaliyotlarini aks ettiruvchi vaziyatlarni yaratish [10; 316 b]. Ma'lum bir madaniyatda og'riqni ifodalashning o'ziga xos usullari

- ❖ Turli jamoalarda oila a'zolarining qaror qabul qilishdagi roli.
- ❖ Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq tibbiy muammolar.


Xalqaro hamkorlik dasturlari asosan tibbiyot muassasalari bilan qo'shma loyihalarni kiritish mumkin.

- ❖ Virtual almashinuv dasturlari.
- ❖ Xalqaro onlayn konferensiyalar.
- ❖ Qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalari.

Til immersiyasida maxsus tibbiy tilga ixtisoslashgan til o'rgatish dasturlarini o'rganish talab qilinadi.

- ❖ Kasbiy atamalarni o'zlashtirish.
- ❖ Tibbiy muloqot ssenariylari.
- ❖ Xalqaro tibbiy hujjatlarni tayyorlash.

Baholash tizimi



2-chizma: Muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning baholash tizimi

Bo'lajak hamshiralarni xalqaro muhitda muloqot qilishga tayyorlash - bu nafaqat til o'rgatish, balki ularga ko'p qirrali madaniy kompetentlikni shakllantirish jarayonidir. Buning uchun an'anaviy o'qitish usullaridan tashqari, innovatsion yondashuvlar, amaliy treninglar va xalqaro hamkorlikni joriy etish zarur. Bunday tayyorgarlik nafaqat shaxsiy kasbiy rivojlanish, balki mamlakatimiz tibbiyotining xalqaro darajadagi obro'si oshirishga ham xizmat qiladi.

Boʻlajak hamshiralarning xalqaro muhitdagi muloqot koʻnikmalarini shakllantirish zamonaviy tibbiyot taʼlimining dolzarb vazifasiga aylangan. Globalizatsiya sharoitida bu koʻnikmalar nafaqat kasbiy faoliyatni, balki bemorlar bilan samarali aloqani ham taʼminlaydi. Boʻlajak hamshiralarning xalqaro muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy va kasbiy oʻsishiga, balki mamlakatimiz tibbiyotining xalqaro hamjamiyatda munosib oʻrinni egallashiga yordam beradi. Bu investitsiya nafaqat taʼlim sifatini, balki umumiy sogʻliqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Caris-Verhallen W. Effective communication in multicultural health care settings // Patient Education and Counseling. – 2020. – Vol. 78. – P. 145–156.
2. Johnson M. L. Developing intercultural competence in nursing students // Journal of Nursing Education. – 2022. – Vol. 61, № 4. – P. 215–220.
3. Kourkouta L. Communication in nursing practice // Materia Socio-Medica. – 2021. – Vol. 26, № 1. – P. 65–67.
4. Petrov A. S. Cross-cultural communication in medical education // Medical Education Today. – 2021. – Vol. 15, № 2. – P. 89–95.
5. Richards J. C. Communicative language teaching today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
6. Smith P. K. Language barriers in health care communication // International Nursing Review. – 2020. – Vol. 67, № 3. – P. 345–352.